

2019-yil 1-oktabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida 3125 ta yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 916 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3116 ta (21,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17651 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktabr holatiga 17651 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,4 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 20,9 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,3 % qurilish, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	14535	17651	121,4	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2217	2619	118,1	14,8
Sanoat	2262	2864	126,6	16,2
Qurilish	1339	1822	136,1	10,3
Savdo	2751	3688	134,1	20,9
Tashish va saqlash	517	602	116,4	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	992	1137	114,6	6,4
Axborot va aloqa	190	198	104,2	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	198	248	125,3	1,4
Boshqa turlari	4069	4473	109,9	25,5


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5436 ta), Sharof Rashidov (2419 ta), Zomin (1444 ta), G'allaorol (1348 ta) va Forish (1223 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (391 ta), Zafarobod (493 ta) hamda Arnasoy (549 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16863 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3047 ta (22,1 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,8 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,5 % qurilish, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5187 ta), Sharof Rashidov (2835 ta), Zomin (1357 ta), G'allaorol (1332 ta) va Forish (1172 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (372 ta), Zafarobod (424 ta) hamda Arnasoy (549 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-sentabr oylarida 3125 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 916 taga ko'pdir.

Yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (934 ta), Sharof Rashidov (547 ta), Zomin (267 ta) va G'allaorol (240 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Zafarobod (75 ta), Yangiobod (77 ta), Arnasoy (109 ta), Mirzacho'l (114 ta), Do'stlik (126 ta) hamda Paxtakor (130 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (953 ta), sanoat (660 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (466 ta) va qurilish (385 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (38 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (42 ta) hamda tashish va saqlash (85 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Tijorat korxonalarini**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktabr holatiga 13741 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4202 ta, oilaviy korxonalar – 717 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 8498 ta va boshqalar 324 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 179 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 67 taga yoki 59,8 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-oktabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 179 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Jizzax shahri (75 ta), Forish (19 ta), G`allaorol va Zomin (14 ta), Sharof Rashidov (13 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho`l (1 ta), Zarbdor (3 ta) hamda Do`stlik tumanlarida (4 ta) to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 118 tasi qo'shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	179	100
Jizzax shahri	75	41,9
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	8	4,5
Baxmal	5	2,8
G'allaorol	14	7,8
Sharof Rashidov	13	7,3
Do'stlik	4	2,2
Zomin	14	7,8
Zarbdor	3	1,7
Zafarobod	6	3,4
Mirzacho'l	1	0,6
Paxtakor	8	4,5
Forish	19	10,6
Yangiobod	9	4,9


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 54 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Jizzax shahar (19 ta yoki jamidagi ulushi 35,2 %), Forish (8 ta yoki 14,8 %) va Zomin tumanlari (5 ta yoki 9,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Zarbdor va Paxtakor (1 ta yoki 1,9 %), Baxmal va Sharof Rashidov (2 ta yoki 3,7 %) hamda Zafarobod tumanlari (3 ta yoki 5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 23 ta, Rossiya Federatsiyasi - 14 ta, Turkiya Respublikasi - 6 ta, Qozog'iston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (29 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta), qurilish (5 ta), savdo (5 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (1 ta) hamda tashish va saqlashda (1 ta) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13698 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktabr holatiga qaraganda 27,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4457 tasi (32,5 %) Jizzax shahri, 2490 tasi (18,2 %) Sharof Rashidov, 1067 tasi (7,8 %) G'allaorol hamda 1056 tasi (7,7 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13698 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3498 tasi (25,5 %) - savdo, 2716 tasi (19,8 %) - sanoat, 2435 tasi (17,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1761 tasi (12,9 %) - qurilish, 1073 tasi (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 573 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 162 tasi (1,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 162 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1318 tasi (9,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida 2941 dan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 63,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (893 ta), Sharof Rashidov (511 ta), Zomin (261 ta) va Gallaorol tumanlari (229 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiobod (66), Zafarobod (68 ta), Mirzacho'l (104 ta) hamda Arnasoy (104) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (953 ta), sanoatda (658 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (464 ta) va qurilishda (385 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (30 ta), axborot va aloqada (38 ta) hamda tashish va saqlashda (85 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktabr holatiga 755 tani tashkil etib, ulardan 717 tasi yoki 95,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 52,8 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,4 % yoki 311 tasi sanoat, 20,5 % yoki 147 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,8 % yoki 106 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,7 % yoki 91 tasi savdo, 0,7 % yoki 5 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki

2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,2 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	225	100
Jizzax shahri	55	24,4
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy		
Baxmal	3	1,3
G'allaorol	22	9,8
Sharof Rashidov	54	24,0
Do'stlik	15	6,7
Zomin	31	13,8
Zarbdor	12	5,3
Zafarobod	10	4,4
Mirzacho'l	4	1,8
Paxtakor	6	2,7
Forish	8	3,6
Yangiobod	5	2,2

2019-yil yanvar-sentabr oylarida 225 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 73,1% ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (55 ta), Sharof Rashidov (54 ta), Zomin (31 ta) va G'allaorol tumanlari (22 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Baxmal

(3 ta), Mirzach'ol (4 ta), Yangiobod (5 ta) hamda Paxtakor (6 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 53,8 % yoki 121 tasi sanoat, 16,9 % yoki 38 tasi savdo, 13,8 % yoki 31 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 10,2 % yoki 23 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4,9 % yoki 11 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-83-65 (66)